
Quvonch onlari: bitiruvchilarga oltin va kumush medallar topshirildi, ularning ota-onalari e'tirof etildi

Toshloq tumanida yoshlar oyligi doirasida o'tkazilgan "Hokim va yoshlar" uchrashuvi davomida 2023-2024 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarini barcha tengdoshlariga namunali xulqi, a'lo baholarga o'qishi, faolligi bilan ajralib turgan o'quvchilardan 39 nafari oltin va 4 nafari kumush medallari bilan taqdirlandi.

Taqdirlash marosimida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev bitiruvchilarni bugungi unutilmas kun bilan samimiy tabriklab, ular mamlakatimizda yoshlarga yaratib berilayotgan imkoniyat va rag'batdan foydalanib, puxta bilim egallashi, katta hayot yo'lida mamlakatimiz rivoji uchun astoydil mehnat qilishi lozimligini ta'kidladi.

Tadbirda 43 nafar bitiruvchilarga oltin va kumush medallari sektor rahbari tomonidan tantanali ravishda topshirildi. Unda so'zga chiqqanlar maktab bitiruvchilariga kelgusi hayotlarida ulkan zafarlar tiladilar.

2024-06-26 14:33:58